



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

1. Turdimurodov Otabek
2. T shquvvatova Zulxumor

*Sh.Rashidov nomidagi SamDU Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti
o'qituvchisi*

*Rashidov nomidagi SamDU Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti
talabasi*

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARGA SONLI IFODALARNI OSON VA TEZ HISOBLASHGA O'RGATISH USULLARI

Annotatsiya: maqolada qo'shish amalini o'rganishning tartibi haqida, yig'indi qoidasidan foydalangan holda qo'shish amalini qulay usullarda yechish, bu amalni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish ya'ni „Baliq skeleti” va „Oltin yulduzcha” metodlari haqida, sonli ifodalar va ular ustida amallar bajarishning usullari haqida mulohaza, fikr va takliflar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Sonli ifoda va uning son qiymati, harfiy ifoda, qo'shish amali va uning xossalari, interfaol metodlar, sonning xona birliklari, ko'p xonali son, arifmetik amallar, ta'rif.

Аннотация: статья содержит размышления, мысли и предложения о порядке изучения действия сложения, о способах решения действия сложения удобными способами с использованием правила сложения, об использовании интерактивных методов обучения этому действию, а именно, о методах "скелет рыбы" и "Золотая звездочка", о числовых выражениях и способах выполнения действий над ними.

Ключевые слова: числовое выражение и его числовое значение, буквенное выражение, операция сложения и ее свойства, интерактивные

методы, разрядные единицы числа, многозначное число, арифметические операции, определение.

Annotation: in the article about the procedure for studying the operation of addition, the solution of the operation of addition in a convenient way using the rule of total combination, the use of interactive methods in teaching this operation, that is "Fish Skeleton" and "Golden Star". There are comments, opinions and suggestions about the methods, numerical expressions and methods of action on them.

Keywords: Numerical expression and its numerical value, literal expression, addition operation and its properties, interactive methods, room units of numbers, multi-digit number, arithmetic operations, definition.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari baland binoning poydevari hisoblanadi. Poydevar qanchalik mustahkam bo'lsa, bino ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bu muxtasham binoning poydevari esa bilim deb atalmish g'ishtdan tashkil topadi. Bu g'ishtlarni o'z joyiga chiroyli qilib teruvchi usta - bu ustoz, muallim hisoblanadi.

Hozirgi kundagi davlatimizning asosiy e'tibori yangi O'zbekistonning yangi avlodi bo'lib o'sayotgan yoshlarni har tomonlama barkamol bo'lib o'sayotgan yosh avlodga qaratilganidir. Bunda 1-sinfga qabul qilingan o'quvchilarga birinchi bo'lib qo'lga ruchka berib ona, ona Vatan so'zlarini yozishni o'rgatgan birinchi ustozni o'rni beqiyosdir.

Sh.M.Mirziyayev

Shuning uchun ham bulg'usi ustozlarni har tomonlama yuksak madaniyatli va chuqur bilimli qilib tarbiyalash masalasini davlatning ichki siyosatining ustuvor vazifalaridan biri ekanligini qayta-qayta eslatib o'tmoqda.

Biz hozir maqolada bayon qilinishi lozim bo'lgan, masaladan biroz chekinib bulg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga, maqolada uchraydigan ba'zi matematik tushunchalarning nazariy asoslarini berib o'tishga harakat qilamiz.

Ta'rif-1. Sonli ifoda deb barcha arifmetik amallar bilan birga darajaga ko'tarish va ildizdan chiqarish amallari bilan chekli sondagi sonlardan tuzilgan ifodaga aytiladi.

Masalan: $2 * 5 - 14 \div 2 + (12 - 3 * 2)$

Ta'rif-2. Sonli ifodaning son qiymati deb sonli ifodaga berilgan amallarni bajarish natijasida hosil bo'lgan songa aytiladi. Masalan, yuqoridagi sonli ifodaning son qiymati 9 ga teng.

$$2 * 5 - 14 \div 2 + (12 - 3 * 2) = 10 - 7 + 6 = 9$$



Bu sonli ifodalardan tashqari boshlang'ich sinfarda algebra fanining asosiy tushunchalardan biri bo'lgan harfiy ifodalardan ham foydalaniladi. Yuqoridagi

Ta'rif-3. Sonli ifodaning tarkibida sonlardan tashqari harflar ham berilgan bo'lsa bunday ifodalarga harfiy ifodalar deyiladi.

Masalan: $2a + 4b(3a - 2c), 4a - 2b(2 + 3a) - 7b$ va $x * 3$

Harfiy ifodaning son qiymati haqida ifodada berilgan harflarning son qiymatlari berilgan bo'lsa so'z yuritishimiz mumkin.

Yuqoridagi harfiy ifodaning $a=4; b=2$ va $c=1$ bo'lgandagi son qiymati 88ga teng bo'ladi.

$$2 * 4 + 4 * 2(3 * 4 - 2 * 1) = 8 + 8(12 - 2) = 8 + 8 * 10 = 88$$

sonli va harfiy ifodalarga kundalik amaliy hayotimizda tez-tez murojaat qilib turamiz .

Bunda ifodalarga misol va masalalarni o'quvchilarning kundalik amaliy hayotidan deb matematika o'qitishni amaliyotga bog'lashga harakat qilish kerak bo'ladi. Endi biz maqolada ko'tarilgan masalani o'rganishga kirishamiz .

Ko'p yillik kuzatishlardan ma'lumki, birinchi sinf o'quvchilari birinchi holatda bir xonali, ikkinchi holatda o'nlik, yuzliklarni, uchinchi holatda yig'indisi yaxlit o'nlik, yuzlikni beradigan sonlarni oson va tez qo'shadilar.

Sonli ifodada oldin birinchi keyin ikkinchi va oxiriga uchinchi holatdagi sonlarni qo'shish talab etiladi. Keyin esa qolgan sonlar shu holatlardan biriga keltirilganda yuksak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Misol uchun $12 + 49 + 88 + 21$ va $437 + 268 + 263 + 352$ sonli ifodalarning son qiymatini topish talab etilsin. Bular yuqorida aytib o'tganimizdek, quyidagicha bajariladi:

$$12+49+88+21=(12+88)+(49+21)=100+70=170$$


$$437+268+263+352=(437+263)+(268+352)=700+620=1320$$

Ma'lumki, birinchi sinfga qabul qilingan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilim darajasi nuqtayi nazardan turli-tuman bo'lib, ularning bir qismi bolalar bog'chalaridan (bog'chalarda ham ta'lim-tarbiya darajasi turlicha bo'lish mumkin, chunki hozirgi kunda davlat bog'chalari bilan birga sherikchilik asosida ochilgan bog'chalar - xususiy bog'chalar) qolgan qismi to'g'ridan-to'g'ri oilasidan kelgan bo'ladilar. Bolalar bog'chalarida ishlayotgan pedagoglarning bilim salohiyatidan kelib chiqib tarbiyalanuvchilarning ham bilim tarajalari turlicha bo'lishi tabiiy. Birinchi sinf o'qituvchisining sinf jamoasini shakllantirib bo'lgandan keyin




didaktika bo'yicha asosiy vazifasi sinfdagi o'quvchilar bilim darajalarini maksimal darajada yaqinlashtirishdan iboratdir. O'qituvchi matematik materiallarni bilish darjasi o'rtacha bo'lgan o'quvchiga mo'ljallab tushuntirishga harakat qilishi kerak. Bilim darjasi past va juda past o'quvchilar bilan o'qituvchi o'quv yili boshlanguncha shug'ullanib ularning bilim darajasini hech bo'lmaganda o'rtacha o'zlashtiradigan o'quvchilar darajasiga yetkazib olishi kerak. Bunda qoloq o'quvchining oilasi bilan yaqin hamkorlikada ishlash lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi shunday qilgandagina matematika dars samaradorligini oshirishga puxta zamin yaratgan bo'ladi. Matematika darslarining samarali bo'lishida o'qituvchining bilim darjasi va uning pedagogik mahorati birinchi o'rinda tursa, ikkinchidan kichik maktab yoshidagi o'yinqaroq o'quvchilarning darsga bo'lgan, matematika darsini o'zlashirishga bo'lgan qiziqishi ham katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarning matematika fanini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda o'qitishning yangi innovatsion va interfaol metodlarning o'rni kattadir. Bunday metodlardan biri „Oltin yulduzcha“ metodi hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarni fikrlashga undaydi va tafakkurini oshiradi.




Bu metodning mohiyati shundan iboratki doira ichidagi so'roq o'rniga oldingi doiradagi sonni qo'shish va jarayonni oxirgi doiragacha davom ettirish kerak bo'ladi.

Bu misolni eng birinchi yechib bo'lgan o'quvchiga shu rangli yulduzchani o'zi mukofot bo'ladi. Bu mukofotning javobi quydagicha bo'ladi.



Yana bir mashhur metodlarning biri bu „Baliq skeleti” metodi hisoblanadi. Bu metodning afzaliklari shundaki, berilgan misol bilan uning yechimi o‘zaro bog‘liqligini bolalar tezda anglaydi va berilgan misol murakkab emas, aksincha qiziqarli tuyiladi. Bu metod bolalarni tezkorlik va ilg‘orlikka undaydi.



Bu metodni asl mohiyati shundan iboratki: „Baliq skeleti” mizning yuqoridagi „suyagiga” misollar yozilgan, pastdagi „suyagiga” esa javoblarini yozish kerak bo‘adi. Jarayon shu tarzda davom etadi. Eng birinchi yechib bo‘lgan o‘quvchi g‘olib hisoblanib, o‘zining tezkorligi va topqirligini isbotlaydi. Ilg‘or boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari matematika darslarini samaradorligini oshirishda biror aniq didaktik maqsadlarga qaratilgan didaktik o‘yinlardan foydalanishadilar. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar hali o‘yinqaroq bo‘lib har bir aytilayotgan, har bir ko‘rgan narsalaridan o‘yin elementlarini qidirishadi. Ko‘plab o‘qituvchilar o‘quvchilarning shu qiziqishlarini o‘z pedagogik salohiyatidan kelib chiqib, ta‘limiy masalalarni hal qilishda foydalanadilar. Bu masala alohida masala bo‘lib unga navbatdagi maqolalarimizning birida to‘xtalib o‘tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov X, Boymanov H, Norqulov L, Nurillayeva S Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi.
2. 2-sinf Matematika fani darslik. Toshkent. 2017-yil